



“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

# OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

2/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.  
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

## TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*

KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

MUSLIMOV Narzulla Alikhanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

NURMATOVA Mukarram Akhmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*

NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

SODIQOVA Shohida Markhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

ZOHIDOV Azamatjon Azamovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

## ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

## ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*

Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*

Абдураманов Хамид Худайbergenovich – *доктор экономических наук, профессор.*

Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Фарфиев Бахромжон Аткамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*

Ишкuvatov Валикул Турдыевич – *доктор исторических наук, профессор.*

Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*

Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*

Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*

Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*

Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*

Содиқова Шохида Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*

Зоҳидов Азаматджон Аъзамович – *доктор экономических наук, профессор.*

## THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

## MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

Zokhidov Azamatjon Azamovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

*SOTSIOLOGIYA*

**Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B.** Gender yondashuv asosida yoshlarni kasbga yo'naltirishning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari..... 4

**Jurayeva Sh.S.** Globallashuv sharoitida migratsion munosabatlarning oilalar barqarorligiga psixologik ta'siri..... 14

*OILA VA JAMIYAT*

**Nurullayeva U.N.** Xotin-qizlarga nisbatan oiladagi tazyiq va zo'rvonlik holatlari: sabab va oqibatlar, yechim yo'llari ..... 22

**Kurbanov E.E.** Yangi O'zbekistonda demokratik islohotlarning nazariy-siyosiy evolyutsiyasi ..... 34

**Tashkenbayeva D.B.** Turmush o'rtog'i nogiron yoki ruhiy kasal bo'lgan ayollar bilan ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar..... 44

*PSIXOLOGIYA*

**Abdusamatov X.U., Sharapova D.B.** Uy bekasi sindromining oldini olish bo'yicha psixologik tavsiyalar ..... 53

**Odilbekov M.M.** Turmush o'rtog'i vafot etgan ayollar bilan psixologik ishlash mexanizmlari..... 65

**Abduraxmonova F.A.** Turmush o'rtog'i bedarak yo'qolgan ayollar bilan ishlash bo'yicha psixologik tavsiyalar ..... 74

**Sa'dullayeva J.I.** Turmush o'rtog'i jazo muddatini o'tash muassasasidagi ayollar bilan ishlashda psixologik tavsiyalar ..... 84

*MAHALLA VA OILA HUQUQI*

**Alimov S.K.** Mamlakatimizda tazyiq va zo'rvonlik holatlaridan jabrlangan ayollarga yordam berish tizimining huquqiy tahlili..... 92

*PEDAGOGIKA*

**Yakubov O.** Ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari ..... 99



**Sa'dullayeva Jamilaxon Ibodilla qizi,**  
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot  
instituti ilmiy xodimi*

# TURMUSH O'RTOG'I JAZO MUDDATINI O'TASH MUASSASASIDAGI AYOLLAR BILAN ISHLASHDA PSIXOLOGIK TAVSIYALAR

**Annotatsiya.** *Mazkur ilmiy maqolada turmush o'rtog'i ozodlikdan mahrum qilish muassasalarida jazo o'tayotgan ayollarning ruhiy holatini yaxshilash hamda jamiyatga qayta moslashishida psixologik reabilitatsion ishlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berib o'tilgan.*

**Аннотация.** *В данной научной статье даны рекомендации по улучшению психического состояния женщин, мужья которых отбывают наказание в местах лишения свободы, реадaptации их к жизни в обществе и организации психолого-реабилитационной работы.*

**Annotation.** *This scientific article gives recommendations on improving the mental state of women whose husbands are serving at places of deprivation of liberty, on readaptation to life in society and the organization of psychological and rehabilitation work.*

**Tayanch so'zlar:** *adaptatsiya, mahbus, depressiya, yolg'izlik, tavsiyalar, nikohni saqlab qolish.*

**Ключевые слова:** *адаптация, тюремное заключение, депрессия, одиночество, рекомендации, спасение брака.*

**Key words:** *adaptation, prisoner, depression, loneliness, recommendations, saving marriage.*

**Kirish.** Jamiyatimizda ayollar ona, opa-singil va nozik jins vakili sifatida qadrlanadi. Shu sababli nafaqat bizning jamiyatimizda, balki boshqa davlatlarda ham ayollarga ko‘plab imkoniyatlar berilgan. Ayollar erkaklarga qaraganda yengilroq ishlar bilan band bo‘lishadi. Oilani ta‘minlashdek qiyin yumushlar esa asosan, erkaklar tomonidan bajariladi. Ba‘zida inson hayotida shunday bir hodisalar ro‘y berishi mumkinki, bunday vaziyatlar insonni ruhiy tushkunlikka tushirib, kelajakdagi hayotini mavhum qilib qo‘yadi.

Bugungi kunda butun dunyo bo‘yicha qamalganlarning soni kundan kun ko‘payib bormoqda. Biz statistik ma‘lumotlarni o‘rgangan holda jazoni o‘tash muassasasidagi insonlarning faqat sonini ko‘rishimiz mumkin, ammo haqiqat shuki, ularning oila a‘zolari, xususan, ayollari ham ozodlikdagi mahkumlardir [Soledad women Preager-1996 Lori.B.Girshick]. Mutaxassislar buni turli sabablar bilan bog‘laydi. Rossiyada 2020-yilda birinchi marta jinoyatga qo‘l urish bilan qamalganlarning soni 144 861 nafarni, 149527 nafarini esa uchinchi va undan ko‘p jinoyat uchun qamoqqa olinganlar tashkil qiladi. AQSHning o‘zida 2.3 mln odam jazoni o‘tash muassasasida saqlanadi. Bu raqamlarga nazar soladigan bo‘lsak, qamoqdagilarning miqdoriga teng inson – ularning oila a‘zolari ozodlikda qiyinchilikka duch kelayotganini fahmlash qiyin emas. Qamalganlarning soni ortishi jamiyatda ijtimoiy himoyaga muhtojlar soni ortishiga ham sabab bo‘lib, mehribonlik uylaridagi bolalarning soni ortishi, ayollarda ruhiy muommolarning ko‘payishi, alkogolizm, ruhiy va somatik kasalliklarning ortishi kabi muommolarning keskin ortishiga sabab bo‘lishini tassavur qilish qiyin emas. Hozirgi kunda Rossiya qamoqxonalari o‘zida 500 mingdan ziyod mahbuslar borligi va ularning ko‘pchiligini erkaklar tashkil qilishi kundek ravshan. “Gazeta.ru” sayti ma‘lumotlariga ko‘ra, qamoqxonalarda saqlanayotgan insonlardagi ruhiy o‘zgarishlar, psixologik buzilishlar haqida Kembridj univertititi olimlari tadqiqotlar olib borishgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qamoqdagi shaxslar uzoq muddatli jazoni o‘tab bo‘lgach, butunlay o‘zgarishi mumkinligi isbotlangan. Biroq aksincha holatlar, ya‘ni avvalgidan ham salbiy ruhiy tushkunlikka tushganlari ham kuzatilgan. Jazoni o‘tayotgan inson psixologiyasida o‘zgarish bo‘lishi tabiiy holat bo‘lib, bu nafaqat qamalgan inson, balki mahkumning yaqinlarida ham juda katta ruhiy o‘zgarishlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ozodlikdan mahrum bo‘lgan insonning yaqinlari bu uning otanasi, turmush o‘rtog‘i, farzandlari, aka-ukari va opa-singillaridir.

**Asosiy qism.** 2019-yilda Amerikada olib borilgan so‘rovnomalarga ko‘ra, mahkumlarning ayollari va bolalari stressni yengishda spirtli

***AQSHning o‘zida 2.3 mln odam jazoni o‘tash muassasasida saqlanadi. Bu raqamlarga nazar soladigan bo‘lsak, qamoqdagilarning miqdoriga teng inson – ularning oila a‘zolari ozodlikda qiyinchilikka duch kelayotganini fahmlash qiyin emas.***

***Ozodlikdan mahrum qilish muassasalarida jazo o'tayotgan odamlarning oila a'zolari ikki tomonlama bosim ostida qoladi. Bir tomondan qamoqqa olingan qarindoshga g'amxo'rlik qilishning og'ir yuki bo'lsa, ikkinchi tomondan jamiyatning avtomatik ravishda qoralanishdir.***

ichimlik hamda turli xil psixotrop moddalarga ruju qo'ygan holatlari kuzatilgan. Qamoqdagi erkaklarning ayollarini stressga olib keluvchi hissiyot yolg'izlik va bo'shliqni his etish bo'lib, ularga mazkur holatda eng to'g'ri yechim sifatida uy hayvonlarini parvarish qilish tavsiya etiladi [sfgate.com].

Ozodlikdan mahrum qilish muassasalarida jazo o'tayotgan odamlarning oila a'zolari ikki tomonlama bosim ostida qoladi. Bir tomondan, qamoqqa olingan qarindoshga g'amxo'rlik qilishning og'ir yuki bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatning avtomatik ravishda qoralanishdir. Sankt-Peterburgdagi Oliy Iqtisodiyot maktabining yoshlarni o'rganish markazi (MDH) hamda Oksford universiteti tadqiqotchilarining mualliflari jamoasi o'z kitobida mahkumlarning onalari, rafiqalari yoki qiz do'stlari bu qiyinchiliklarni qanday boshdan kechirishi haqida hikoya qiladi. "Aleteya" nashriyoti tomonidan chop etilgan "Qamoqxona yaqinida: mahkumlar qarindoshlarining shaxsiyati va kundalik hayoti" (Sankt-Peterburg, 2015) monografiyasi "Qamoqxonadan oldin va keyin: ayollar hikoyalari" (E.Omelchenko, 2012) kitobining mantiqiy davomi hisoblanadi. Tadqiqotchilar mahkumlarning qarindoshlari bu vaziyatda o'zlarini qanday his qilishi, qiyinchiliklarga qanday dosh berishi va penitentsiar tizimning ishlashiga qanday hissa qo'shishi haqida so'zlab beradi. Kitob mualliflari alohida ta'kidlagan jihatlardan biri shundaki, jamiyat va davlat, aslida, xotin-qizlar va onalarni boshiga tushgan muammolar bilan nafaqat yolg'iz qoldiradi, balki qo'shimchasiga bosimni ham kuchaytiradi.

"Turmush o'rtog'i ozodlikdan mahrum etilgan ayollarning ruhiyatiga bosim o'tkazuvchi jarayonlardan yana biri – boquvchisini yo'qotish", – deydi lohiya muallifi. Ayol kishi endi o'zini ta'minlash bilan bir qatorda farzandlariga ham g'amxo'rlik qilishi kerak. Biroq birgina ta'minot va g'amxo'rlik bilan muammo hal bo'lib qolmaydi. Bolalarni tarbiya qilish, ulaning o'qishi va boshqa vaziyatlarni ham bir o'zi bosib o'tishi kerak. Eri qamoqda bo'lgan ayolning ushbu jarayondagi ikkinchi moddiy qiyinchiliklaridan biri – turmush o'rtog'ining ahvolidan xabar olish, uning moddiy ehtiyojlarini ko'tarishga majbur bo'lishi. Mahkumni yo'qlab borganda o'z navbatini uzoq kutish, qamoqxonalarning ko'plab haqoratli qonunlaridan o'tish va moslashish davri ular uchun qiyinchilik tug'diradi. Ayollarning ko'pchiligi bu davrda ozodlikdan mahrum bo'lgan insonini kutish va g'amxo'rlik qilish yo'lini tanlasa, ba'zilar ruhiy tushkunlik va zo'riqish, moddiy qiyinchiliklar, atrofdagilarning bosimiga chidashdan bosh tortib, nikohlarini bekor qiladi.

Tadqiqot doirasida qamoqxonadagi inson va uning qarindoshlari hayotini o'rgangan Yelena Omilchenko siyosiy mahbuslar masalasiga

ham alohida to'xtalib, siyosiy mahbuslar hamda uning oila a'zolarining hayoti biroz yengil kechishini aniqlagan. Siyosiy mahbuslarning oilasida moddiy qiyinchiliklar xavfi unchalik katta bo'lmaydi, sababi siyosiy mahbusni qo'llab-quvvatlovchi tarafdorlari uning xarajatlari uchun jamg'armalar tashkil qiladi. Tashkil qilingan jamg'armalar hisobidan mahbus uchun advokat tayinlash va oziq-ovqat xarajatlaridan tashqari uning oila a'zolarining moddiy ehtiyojlarini qondirishga ham harakat qilinadi. Siyosiy mahbuslarni qo'llab-quvvatlovchi insonlar uning oila a'zolarini yolg'iz qoldirmasligi mahbusning oila a'zolariga psixologik dalda bo'lib xizmat qiladi. Natijada siyosiy mahbuslarning oilalari oddiy mahbuslarga nisbatan oila sifatida saqlab qolinadi va ruhiy tushkunlikni kamroq boshdan kechiradi.

Yaqin insoni panjara ortiga tushishi oqibatida mahbusning yaqinlari va ayolida kechadigan ruhiy jarayonlar haqida "Sizning imkoniyatingiz" loyihasi psixologi – Galina Mitina o'z kuzatishlari va o'rganishlari bilan o'rtoqlashgan hamda ayollarga bu vaziyatda qanday yo'l tutish bo'yicha psixologik tavsiyalar bergan.

Yaqin insoni jazoni o'tash muasasasida bo'lgan ayollar o'zida yo'qotish, qayg'u, g'azab, umidsizlik, aybdorlik yoki uyat hissini boshdan kechiradi. Bu kabi vaziyatda haqiqatdan uyalgan ayol "erim uzoq xizmat safarida" yoki "ma'lum muddatga ota-onasinikiga ko'chib o'tdi" deya bahonalar to'qishga majbur bo'ladi. Asosiysi, chalkashlik va og'riqli his-tuyg'ularga berilmaslik, odamlarga er yoki xotinning yo'qligini qanday tushuntirish haqida o'ylash. Haqiqatni har kimga aytish shart emas. His-tuyg'ularni bostirishning hojati yo'q, his-tuyg'ularni qiyin voqealarning tabiiy natijasi sifatida "peshonada bori"ni qabul qilish juda ham muhim. Tushkunlikka tushib qolishning oldini olish maqsadida eng yaqin insonlar bilan dardlashish, to'yib yig'lab olish tavsiya etiladi. His-tuyg'ularni yashirmaslikka qanchalik harakat qilsangiz shunchalik bu vaziyatdan tez chiqib keta olasiz. Ayol kishi endi barcha farzandlariga g'amxo'rlik qilishi, to'lovlarni to'lashi, erining yordamisiz kundalik muammolarni o'zi hal qilishi kerak. Endi oilada quvonchli damlarda bir kishi kam bo'ladi. Baxtli onlar haqidagi xotiralardan voz kechishning hojati yo'q, lekin bir xil o'tmishda yashash ham foydasiz. Siz qanchalik xohlasangiz ham, bo'lib o'tgan vaziyatni o'zgartirib bo'lmaydi.

Qamoqqa tushib qolgan ota haqida bola bilan gaplashish ona uchun juda qiyin bo'lishiga qaramay, bu mavzuda suhbatlashayotganda bolalarning yoshini hisobga olish kerak. Bolalar qo'rquv, chalkashlik, g'azab, qayg'u yoki yolg'izlik kabi og'riqli his-tuyg'ularni boshdan kechiradi. Shu sababli ular otasi bilan telefon orqali gaplasha olishi, tashriflar paytida otasi bilan uchrashish imkoniga egaligini tushuntirish

***His-tuyg'ularni bostirishning hojati yo'q, his-tuyg'ularni qiyin voqealarning tabiiy natijasi sifatida "peshonada bori"ni qabul qilish juda ham muhim. Tushkunlikka tushib qolishning oldini olish maqsadida eng yaqin insonlar bilan dardlashish, to'yib yig'lab olish tavsiya etiladi.***

***Tadqiqot  
natijalariga ko‘ra,  
oilali, nikohdagi  
farzandi bor  
erkaklar qamoqda  
og‘ir ruhiy  
kechinmalarga  
kamroq uchragani,  
60-70 foiz hollarda  
esa hatto qayta  
tarbiyalangani  
aniqlangan.***

kerak bo‘ladi. Bolasi bilan tengdoshlari, do‘stlari yoki kattalarning savollariga qanday javob berishi mumkinligini muhokama qilish, so‘roqlarga yakdillik bilan “Dadam qamoqda” yoki “Dadam bir muddat uzoqda” degan javob berishga o‘zaro kelishib olish muhim ahamiyatga ega.

1998-yilda yozilgan Prisoners’ Families: The “Forgotten Victims” (Mahkumlar oilalari: “Unutilgan qurbonlar”) nomli kitobda qamoqqa olingan erkaklarning oilalari va ayollari bo‘yicha tadqiqot o‘tkazilgan bo‘lib, unda jazoni o‘tayotgan mahbuslarning oilalarini saqlab qolish, ozodlikka chiqqan erkaklarning qanchalik darajada o‘zgarganini o‘rganishdan iborat bo‘lgan. Tadqiqotda qamalgan erkaklarni ikki – oilali, nikohdagi farzandi bor hamda nikohsiz ayoli bor erkaklar guruhiga bo‘lgan holda o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oilali, nikohdagi farzandi bor erkaklar qamoqda og‘ir ruhiy kechinmalarga kamroq uchragani, 60-70 foiz hollarda esa hatto qayta tarbiyalangani aniqlangan. Buning asosiy sababi ayollarining qo‘llab-quvvatlashi, mehr muhabbati ekanligini isbotlangan. Oilalari ular uchun motiv vazifasini bajargan. Nikohsiz ayoli bor erkaklarda esa qayta tarbiyalanish ko‘rsatkichi pastligi va juda ko‘p hollarda bunday aloqalar tez yakun topishini ko‘rsatadi. Tadqiqot yuksak oilaviy qadriyatlar insonlarni, oilalarni va bolalarni yaxshi yashashi uchun poydevor ekanini isbotlaydi. Tadqiqot natijasiga tayangan holda qamalgan oilalarni qo‘llab-quvvatlash dasturini rivojlantirish taklif qilindi.

1990-yil AQSHda Vermont universitetining Sotsiologiya kafedراسi dotsenti Laura T. Fishman o‘zining birinchi etnografik tadqiqotini kitob holida chop ettirgan “Women at the wall: A Study of Prisoners’ Wives Doing Time on the Outside” nomli kitobida erkak jinoyatchilarning hibsga olinishi, sudlanishi, qamoqqa olinishi va ozod etilishi ularning oilalari, xususan xotinlariga qanday ta’sir qilishi haqida so‘z boradi. Tadqiqot doirasida hibsga olingan erkaklarning ayollari qamrab olingan. Ayollarning yoshi – 19–44, erkaklarniki esa 21–55 yosh chegarasidagilarni tashkil etgan. Qamrab olingan ayollar bilan o‘tkazilgan suhbat va so‘rovnomalar natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqotda qatnashgan ayollarning 1 foizi ilmiy sohaga umuman qiziqarmligini bildirgan. 3% ayollar o‘z ishidan mamnunligini, 4-5% ayollar o‘rta ma’lumotga egaligi, 15-16% ayollarda maktabni tugatganligi va muqim ish joyiga ega emasligini qayd etgan bo‘lsa, 50 foizdan ortig‘i farzand ko‘rish va uy yumushlaridan boshqa narsalar haqida uylamasligini takidlagan. Lekin ayollarning ko‘pchilik qachonlardir martabali inson bo‘lishni xohlaganligini bildirgan. Tadqiqotda ishtirok etgan erkaklarning ma’lumot darajasi ayollarnikidan bir pog‘ana yuqori bo‘lsa-da, ularning hech biri ilmiy ish



bilan shugʻullanmasligi maʼlum boʻldi. Juft sifatida shugʻullanadigan ishlar, asosan, uy bekalik, ofitsant, uy xizmatchisi, qorovul, kotib, kotiba, buxgalter yordamchisi kabi barqaror boʻlmagan sohalar edi. Bu ishlar tadqiqot doirasidagi ayollar va erkaklarga na taʼminlanganlik darajasini va na maqom, unvon, martaba bermasligini koʻrsatib berdi. Jinoyat qilishning sabablaridan biri – maʼlumot darajasining pastligi, doimiy va oʻsuvchi ish sohasiga ega emasligi, ilm olishga boʻlgan xohishning pastligi, deb xulosa qilindi. Shuningdek, tadqiqot doirasida ayollarning erlari bilan munosabati qanday boʻlgani oʻrganildi. Suhbatlar 2 soatdan 10 soatgacha davom etgan. Oʻtkazilgan suhbat natijalariga koʻra, 55% ayollarda eri hibsga olinmasdan oldin 1 oydan 6 oygacha boʻlgan muddatda munosabatlari yomonlashganini aytgan. Baʼzilar ichkilikka ruju qoʻrganini takidlagan boʻlsa, baʼzilar giyohvand moddalarga berilib ketganini aytgan. Suhbat jarayonida yana bir qancha ayollar atrofidagi doʻslari yoki ayol doʻstlari sabab munosabatlar yaxshi boʻlmaganini aytib oʻtgan

1996-yilda Lori B. Girshak yana bir tadqiqot oʻtkazib, uni “Soledad woman: Wives of Prisoners Speak Out” (Soledad mahbuslarining ayollari: Mahbuslarning ayollari gapiradi) nomli kitobda chop ettirdi. Muallif feministik yondashgan holda Soledad qamoqxonasidagi mahbuslarning 25 tasini tadqiqotga kiritib, ularning ayollari bilan suhbatlar oʻtkazgan. Ayollarning erlari qamoqqa olinishidan avval va keyin hayoti, turmush tarziga qanday taʼsir oʻtkazganini oʻrganib chiqdi.

Tadqiqotda quyidagi yoʻnalishlar oʻrganildi:

- er-xotin birgalikda yashagan davri (davomiyligi);
- irqi, yoshi va tajribasi;
- hibsga olingan turmush oʻrtogʻi boʻlgan ayollarda qiyinchiliklarga moslashish yoki moslasha olmasligi;
- ularning ruhiy holatida oʻzgarishlarning kelib chiqishi.

Amerikalik klinik psixolog, ruhiy salomatlik boʻyicha mutaxassis Trudi Griffin eri jazoni oʻtash muassasasida yoki uzoqda boʻlgan ayollar uchun stressga qarshi kurashish boʻyicha tavsiyalar berib oʻtgan [WikiHow.com]. Trudi Griffin takidlashicha, yolgʻizlikda oʻtgan kunlarni yengishda eng muhimi toʻgʻri yoʻlni tanlash boʻlib, u turmush tarzini ham jismonan, ham ruhan saqlab qolishga koʻmaklashadi.

Ayollarning toʻsatdan yolgʻizlikka mahkum boʻlishi sogʻlom turmush tarzini saqlab qolishni qiyinlashtirsa-da, buni qadam-baqadam bartaraf etishning imkoni mavjud. Ular:

**1-qadam.** Oʻz hissiy holatingiz haqida kim bilandir boʻlishing. Agar bunday suhbatdosh topilmasa, kundalik tutishni odat qiling. Daftar yoki

*Jinoyat qilishning sabablaridan biri – maʼlumot darajasining pastligi, doimiy va oʻsuvchi ish sohasiga ega emasligi, ilm olishga boʻlgan xohishning pastligi, deb xulosa qilindi.*

***Ba'zi tadqiqotlarda otalari qamalgan bolalarning ijtimoiy muhitga qayta moslashishida psixologik muammolar paydo bo'lishi aniqlangan. Bunday hollar ayollarda ham kuzatilishini inobatga olib, oila boshlig'i hibsdagi oilalar bilan fikr almashish, muhokamalar, terapevtik suhbatlar tashkil qilish juda foydali bo'lishi ta'kidlangan.***

kitob sotib oling, unga o'zingizdagi holatni, kundan kunga nimalarni his qilayotganingizni va eng muhimi sizda qanday maqsadlar paydo bo'layotganini yozib boring.

2-qadam. Jismoniy faollik uchun kunning ma'lum soatlarini ajrating. Sport nafaqat salomatligingiz uchun, balki ruhiy holatingiz va garmonlar muvozanati uchun ham katta yordam beradi.

3-qadam. Hammasini boricha qabul qilishga harakat qiling. Hayotingiz keskin o'zgarganini qabul qiling. O'zingizni qiynashni to'xtatib, hozir nimalar qila olishingizni o'ylang. Odamlar siz va turmush o'rtog'ingiz haqidagi fikrni qanday qabul qilishi va uning yo'qligini ularga qanday tushuntirish haqida o'ylang. Bunday vaziyatda eringizni "ishlashga yoki xizmat safariga ketgan" deb aytish yechim emasligini tushuning.

4-qadam. Qamoqdagi turmush o'rtog'ingizdan tashqari farzandlaringizga ham g'amxo'rlik qilishingiz kerakligini unutmang. Frazandlaringizga otasi haqida nima deyishni o'ylab ko'ring. "Otangiz qamoqda" yoki "otangiz bir muddat uzoqda" kabi.

5-qadam. Turmush o'rtog'i jazoni o'tash muassasasida bo'lgan ayollar, birinchi navbatda, molyaviy qiyinchiliklar bois qo'shimcha mablag' topishni o'ylashadi. Bu vaziyatda qanday yo'l tutgan ma'qul? Dastlab, agar siz ma'lum ish joyiga ega bo'lsangiz, ishlab turgan sohangiz bo'yicha ko'proq malaka va bilimlarni egallang. Agar ish joyiga ega bo'lmasangiz, qaysi ishni hamma narsadan yaxshiroq uddalashingiz haqida o'ylab ko'ring. Qaramog'ingizda voyaga yetmagan farzandlaringiz bo'lsa, oiladan ajralmagan holda qanday ish qila olishingiz haqida o'ylab ko'ring, bandlikka ko'maklashish markazlariga murojaat qiling. Harakatni boshlashingiz bilan imkoniyatlar paydo bo'la boshlaydi.

6-qadam. Turmush o'rtog'ingiz xulqidagi o'zgarishlarni to'g'ri qabul qiling. Shu vaqtgacha xodim, rahbar yoki tadbirkorlik vazifasida ishlab kelgan turmush o'rtog'ingiz endi "mahbus" roliga o'tishi u uchun qattiq zarba bo'ladi. Bu vaqtda nikohingiz va munosabatlaringizni saqlab qolish uchun unga tirgak bo'ling. Ko'rishish vaqti kamaygani bois u bilan muhokama qilishingiz kerak bo'lgan masalalarni yon daftarchangizga eslatma sifatida yozib boring.

Ba'zi tadqiqotlarda otalari qamalgan bolalarning ijtimoiy muhitga qayta moslashishida psixologik muammolar paydo bo'lishi aniqlangan. Bunday hollar ayollarda ham kuzatilishini inobatga olib, oila boshlig'i hibsdagi oilalar bilan fikr almashish, muhokamalar, terapevtik suhbatlar tashkil qilish juda foydali bo'lishi ta'kidlangan. Ular o'zi kabi boshqa oilalar jamiyatga qanday moslashayotganini ko'rganda, o'zlaridagi aybdorlik hissini yengishda yolg'iz emasligini bilgan holda moslashishi osonroq

kechadi. Amerika va Yevropa davlatlarida qamoqdagi shaxslarning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash markazlari mavjud bo'lib, unda mahkumlarning ayollari o'zaro tanishib, fikr almashish orqali o'zidagi aybdorlik va uyat hissini yengishga yordam berishi ayollar tomonidan etirof etilgan. Bu dasturlardan biri WAIT hisoblanadi. WAIT dasturi turmush o'rtog'i jazoni o'tash mussasasida bo'lgan ayollar – N.Linda va I.Shelli tomonidan tashkil etilgan. Dasturning maqsadi mahkumlarning ayollari, qiz do'stlari va yaqinlarini jamiyatdan ajralish, aybdorlik hissidan ozod qilish hamda mahkumlarning oilalarini jamiyatning faol a'zolari sifatida saqlab qolishdan iborat. Dastur doirasida mahkumlarning ayollari va oila a'zolari bilan uchrashuvlar, suhbatlar tez-tez o'tkazilib turiladi. Dastur doirasidagi suhbatlarda har bir ayol yolg'izlikka qanday ko'nikkani, qiyinchiliklarga qanday yechim topgani haqida bir-biriga so'zlab beradi.

**Xulosa** o'rnida aytish joizki, jahon tadqiqotlari natijalariga ko'ra, jamiyatda jinoyatga yetaklovchi omillardan insonni faqatgina yaxshi tarbiya va o'zini ongli idora etishi saqlaydi. Qiyin ijtimoiy ahvolga tushib qolgan ayollarning bilimini oshirish orqali jamiyatni yuksaltirib borish, farzandlarining tarbiyasi va kelajak mas'uliyatini bo'yniga olgan ayollar bilan ishlashda ularni ijtimoiy izolyatsiyadan saqlash hamda jamiyatga moslashuvini ta'minlashda bugungi kunda faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar faollarining o'rni beqiyos. Ushbu faollar uchun belgilab berilgan vakolat hamda vazifalar ko'lamida mazkur ayollar qatlamiga yordam berish, ularni kichik biznes faoliyatiga undash hamda bandlik markazlari orqali ish bilan ta'minlash choralarini ko'rish, turli bepul kurslarda o'qitish va boshqa shu kabi tadbirlarni amalga oshirishda bilvosita ishtirok etishlari zarurdir.

**Amerika va Yevropa davlatlarida qamoqdagi shaxslarning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash markazlari mavjud bo'lib, unda mahkumlarning ayollari o'zaro tanishib, fikr almashish orqali o'zidagi aybdorlik va uyat hissini yengishga yordam berishi ayollar tomonidan etirof etilgan.**

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lori. B. Girshak. *Soledad woman: Wives of Prisoners Speak Out*. 1996
2. *Prisoners' Families: The "Forgotten Victims"*. 1998.
3. Laura T. Fishman. *Women at the wall: A Study of Prisoners' Wives Doing Time on the Outside*. 1990.
4. <https://ovdinfo.org/articles/2018/12/21/ty-bezhish-marafon-kak-zhit-kogda-tvoylyubimyy-chelovek-v-tyurme>
5. <https://novayagazeta.ru/articles/2020/09/09/87011-osuzhdennye-zhdat>
6. [https://www.b17.ru/article/muzha\\_posadili\\_v\\_turmu\\_soveti\\_psihologa/](https://www.b17.ru/article/muzha_posadili_v_turmu_soveti_psihologa/)
7. [https://scholar.google.com/scholar?q=related:Q5KcHeFi6tYJ:scholar.google.com/&scioq=&hl=ru&as\\_sdt=0,5](https://scholar.google.com/scholar?q=related:Q5KcHeFi6tYJ:scholar.google.com/&scioq=&hl=ru&as_sdt=0,5)
8. WikiHow.com sayti
9. sfgate.com sayti

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»  
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE

---

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA  
IJTIMOIY HAYOT**  
**СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ**  
**FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE**

*elektron ilmiy jurnal*  
*электронный научный журнал*  
*electronic scientific journal*

2/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации» № 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года. Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных, фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021. The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions of makhalla, family and gender equality.*

---

**MUASSIS:**

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,  
Jo‘rayeva M., Razzakova N.,  
Sobirova E., Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materialari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 21.08.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangıhayot tumani, 5-qurılısh hududi, 9-uy.